

AHOLI DAROMADLARINING TARKIBI, DINAMIKASI VA HUDUDLAR BO'YICHA DIFFERENSIATSIYASINI STATISTIK BAHOLASH

Farmonov Dilshod Po'latovich

Qarshi davlat texnika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

E-mail: dilshod.farmonov@gmail.com

Annotatsiya

Tezisdah aholi daromadlarining iqtisodiy-statistik mazmuni, tarkibiy tuzilishi va hududiy taqsimlanishi yaxlit uslubiy doirada o'rganildi. Xalqaro statistik standartlarga tayangan holda daromad kategoriyasining o'lchov chegaralari aniqlashtirildi hamda uy xo'jaligi darajasidagi kuzatuv ko'rsatkichlari bilan milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlari o'rtasidagi muvofiqlik asoslandi. O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistikasi ma'lumotlari asosida daromad manbalarining ulushi, nominal va real o'sish sur'atlari, hududlararo tafovut darajasi baholandi. Tarkibiy siljish, dinamik indeks va tengsizlik o'lchovlarini birlashtirgan uch bosqichli tahlil konturi taklif etildi. Baholash mehnat daromadlari bilan transfert daromadlari o'rtasidagi nisbatning o'zgarish yo'nalishini aniqladi va hududiy tabaqalanishning qisqarish tendensiyasini qayd etdi. Xulosada statistik kuzatuv tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar shakllantirildi.

Kalit so'zlar: aholi daromadlari, daromad tarkibi, real daromad, hududiy differenziatsiya, transfertlar, Jini koeffitsiyenti, statistik baholash.

Аннотация

В тезисах в единой методической рамке изучены экономико-статистическое содержание доходов населения, их структурное строение и региональное распределение. С опорой на международные статистические стандарты уточнены границы измерения категории дохода и обоснована сопоставимость показателей обследований домашних хозяйств с показателями системы национальных счетов. На основе данных официальной статистики Республики Узбекистан оценены доля источников дохода, темпы номинального и реального роста, а также степень межрегиональных различий. Предложен трёхэтапный аналитический контур, объединяющий структурные сдвиги, динамические индексы и меры неравенства. Оценка выявила направление изменения соотношения между трудовыми и трансфертными доходами и зафиксировала тенденцию сокращения региональной дифференциации. В заключении сформулированы практические предложения по совершенствованию системы статистического наблюдения.

Ключевые слова: доходы населения, структура доходов, реальный доход, региональная дифференциация, трансферты, коэффициент Джини, статистическая оценка.

Abstract

The thesis examined the economic and statistical content of household income, its structural composition and its regional distribution within a single methodological framework. Drawing on international statistical standards, it clarified the measurement

boundaries of the income category and justified the consistency between household survey indicators and national accounts aggregates. Using official statistics of the Republic of Uzbekistan, it assessed the share of income sources, nominal and real growth rates, and the degree of interregional disparity. A three-stage analytical contour combining structural shift measures, dynamic indices and inequality metrics was proposed. The assessment identified the direction of change in the ratio between labour and transfer income and recorded a narrowing tendency in regional differentiation. The conclusion formulated practical proposals for improving the statistical observation system.

Keywords: household income, income structure, real income, regional differentiation, transfers, Gini coefficient, statistical assessment.

KIRISH

Aholi daromadlari iqtisodiy nazariyada takror ishlab chiqarish jarayonining taqsimot bosqichini ifodalovchi kategoriya sifatida talqin etiladi va uning o'lchovi milliy iqtisodiyotdagi qiymat oqimlarining uy xo'jaliklari darajasida qanday jamlanishini ko'rsatadi. Statistik nuqtai qaraganda daromad tushunchasi muayyan davr mobaynida uy xo'jaligi ixtiyoriga kelib tushadigan va uning sof boyligini kamaytirmasdan iste'molga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan barcha tushumlar majmuasi sifatida belgilanadi. Bunday ta'rif uy xo'jaligi daromadlari statistikasi bo'yicha xalqaro uslubiy qo'llanmada mustahkamlangan va u pul ko'rinishidagi tushumlar bilan bir qatorda natura shaklidagi hamda shartli hisoblangan tushumlarni ham qamrab oladi [1].

Daromadning makroiqtisodiy o'lchovi milliy hisoblar tizimida institutsional sektorlar bo'yicha shakllantiriladigan birlamchi va ikkilamchi taqsimot hisoblari orqali beriladi. Ushbu hisoblar mehnatga haq to'lash, mulkdan olinadigan daromad, aralash daromad va joriy transfertlar oqimlarini ketma-ket qayd etib, ixtiyoriy daromad ko'rsatkichini hosil qiladi [2]. Mikro va makro darajadagi o'lchovlarning uyg'unligi daromad statistikasining ishonchliligini ta'minlovchi asosiy shart hisoblanadi, chunki uy xo'jaliklari kuzatuv i individual xulq-atvor va taqsimlanishni, milliy hisoblar esa jamlanma balansni tavsiflaydi.

Daromad ko'rsatkichlarining tahliliy qiymati uch o'lchamda namoyon bo'ladi. Birinchisi tarkibiy o'lcham bo'lib, u daromadning qaysi manbalardan shakllanayotganini va shakllanish mexanizmining barqarorlik darajasini ochib beradi. Ikkinchisi dinamik o'lcham bo'lib, nominal o'sishning narx omilidan xoli qismini ajratish orqali farovonlikning haqiqiy o'zgarishini o'lchaydi. Uchinchisi fazoviy o'lcham bo'lib, daromadning hududlar va aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanish tekisligini baholaydi. Farovonlikni o'lchashning zamonaviy konseptual doirasi aynan shu uch o'lchamning birgalikda qo'llanilishini tavsiya etadi, chunki o'rtacha ko'rsatkichlar taqsimot xususiyatlarini to'liq ifodalamaydi [3].

O'zbekiston iqtisodiyotida daromad shakllanishi mexanizmining o'ziga xosligi mehnat bozorining yuqori dinamikasi, oilaviy tadbirkorlikning keng tarqalganligi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining izchil kengayishi bilan bog'liq. Ushbu jarayonlar daromad manbalarining nisbatini o'zgartirib, statistik baholashning uslubiy

apparatiga qo'yiladigan talablarni oshiradi. Maqolaning Ilmiy vazifasi daromad tarkibi, dinamikasi va hududiy differensiatsiyasini yagona mantiqiy ketma-ketlikda baholovchi uslubiy konturni asoslash hamda uni rasmiy statistika ma'lumotlari misolida sinovdan o'tkazishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Daromadlar taqsimoti va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tizimli o'rganish an'anasi Kuznets tomonidan asoslangan bo'lib, u sanoatlashuv bosqichlarida tengsizlik ko'rsatkichlarining avval kengayib, keyin torayish yo'nalishiga o'tishi haqidagi farazni ilgari surgan va taqsimot dinamikasini strukturaviy o'zgarishlar bilan bog'lagan [4]. Ushbu yondashuv daromad tengsizligini mustaqil hodisa emas, balki iqtisodiy tuzilmaning hosilasi sifatida ko'rish imkonini berdi.

Tengsizlikni o'lchash nazariyasida Atkinson tomonidan taklif etilgan ijtimoiy farovonlik funksiyasiga asoslangan indeks muhim uslubiy burilish bo'ldi: u o'lchov natijasini tengsizlikka nisbatan jamiyat sezgirligi parametriga bog'lab, o'lchov mezonini normativ asosga qo'ydi [5]. Keyingi tadqiqotlar tengsizlik ko'rsatkichlarini tarkibiy qismlarga ajratish yo'nalishida rivojlandi. Shorrocks daromad manbalari bo'yicha dekompozitsiya qoidalarini ishlab chiqib, umumiy tengsizlikka har bir manbaning qo'shgan hissasini hisoblash imkonini yaratdi [6]. Bourguignon esa guruhlararo va guruh ichidagi tarkibiy qismlarga to'liq ajraluvchi o'lchovlar sinfini aniqlab, hududiy tahlil uchun zarur bo'lgan additivlik xossasini rasmiylashtirdi [7].

Uy xo'jaliklari kuzatuv ma'lumotlari bilan ishlashning amaliy uslubiyati Deaton tomonidan umumlashtirilgan bo'lib, unda tanlanma dizayni, o'lchov xatoliklari va ekvivalentlik shkalalarining baholash natijalariga ta'siri batafsil ko'rsatilgan [8]. Soliq ma'muriyati ma'lumotlaridan foydalanish yo'nalishi Piketty va Saez tadqiqotlarida rivojlantirilib, yuqori daromad guruhlari bo'yicha uzoq muddatli qatorlar qurish imkoniyati asoslandi [9]. Ushbu ikki yo'nalish bir-birini to'ldiradi: kuzatuv ma'lumotlari taqsimotning quyi va o'rta qismini, ma'muriy manbalar esa yuqori qismini ishonchli tavsiflaydi.

Mavjud adabiyotlar tahlili uch xulosani ilgari suradi. Birinchidan, daromad tarkibini o'rganish tengsizlik o'lchovidan ajratilgan holda yetarli tahliliy kuchga ega emas. Ikkinchidan, hududiy differensiatsiyani baholashda additiv dekompozitsiya xossasiga ega o'lchovlardan foydalanish afzal. Uchinchidan, dinamik baholash nominal oqimlarni narx indeksleri orqali tuzatishni talab qiladi. Bu uch talabni birlashtirgan yaxlit uslubiy kontur milliy statistika amaliyotida qo'shimcha asoslashga muhtoj bo'lib qolmoqda, maqolaning ilmiy hissasi aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Baholash uch bosqichli mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi. Birinchi bosqichda daromadning manba tarkibi ulush ko'rsatkichlari orqali o'lchanadi: har bir manbaning jami daromaddagi salmog'i aniqlanib, davrlar bo'yicha tarkibiy siljish darajasi baholanadi. Tarkibiy siljishning umumlashtirilgan o'lchovi sifatida taqqoslanayotgan ikki davr ulushlari ayirmalarining modullari yig'indisi yarmiga teng bo'lgan

ko'rsatkichdan foydalaniladi; uning qiymati nol bo'lsa tarkib o'zgarmaganini, birga yaqinlashsa tarkibning tubdan yangilanganini bildiradi.

Ikkinchi bosqichda dinamik baholash amalga oshiriladi. Nominal daromad indeksleri iste'mol narxlari indeksiga bo'linib, real o'sish sur'ati hisoblanadi; jon boshiga daromadning real o'sishi esa aholi soni o'sishining ta'sirini ajratadi. O'rtacha yillik o'sish sur'ati geometrik o'rtacha orqali topiladi, chunki daromad qatorlari multiplikativ xususiyatga ega va arifmetik o'rtacha o'sishni tizimli ravishda ortiqcha baholaydi.

Uchinchi bosqichda hududiy differentsiatsiya o'lanadi. Oddiy qamrov ko'rsatkichi sifatida eng yuqori va eng quyi daromadli hududlar guruhlar o'rtasidagi nisbat qo'llaniladi. Taqsimotning butun konturi bo'yicha tengsizlikni o'lchash uchun kvintil guruhlar nisbati va Jini koeffitsiyenti ishlatiladi; hududiy tarkibiy qismlarga ajratish talab etilganda to'liq dekompozitsiyalanuvchi o'lchovlar sinfi afzal ko'riladi [7]. Manbalar bo'yicha hissa hisoblashda dekompozitsiya qoidasi qo'llaniladi [6].

Ma'lumotlar bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining aholi turmush darajasi bo'yicha rasmiy statistika resursi tashkil etadi; u uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv va jamlanma hisob-kitoblar asosida shakllantiriladi [10]. Barcha nisbiy ko'rsatkichlar rasmiy nashrlarda e'lon qilingan qiymatlardan olingan bo'lib, hisob-kitoblarda oraliq taxminiy qiymatlar qo'llanilmadi. Uslubiy konturning umumiy ko'rinishi 1-rasmda keltirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Daromad tarkibini baholash mehnat faoliyati bilan bog'liq tushumlar hamda transfert oqimlari o'rtasidagi nisbatning sezilarli o'zgarayotganini ko'rsatdi. Rasmiy jamlanma hisobotga ko'ra, 2025-yilda aholining umumiy daromadlari 1 134,3 trln so'mni tashkil etib, nominal o'sish 18,9 foizga, real o'sish esa 9,2 foizga yetdi; jon boshiga daromadning real o'sishi 7,2 foiz darajasida qayd etildi [11]. O'sish sur'atlarining oldingi yil ko'rsatkichlaridan yuqoriligi daromad shakllanishi mexanizmining barqarorlashayotganini tasdiqlaydi.

1-jadval

Aholi umumiy daromadlari tarkibi va tengsizlik ko'rsatkichlarining o'zgarishi¹


Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	Manba
Aholining umumiy daromadlari, trln so'm	-	1 134,3	[11]
Umumiy daromadlarning real o'sishi, foizda	8,1	9,2	[12]
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar ulushi, %	62,8	60,4	[12]
- yollanma ishchilar daromadlari ulushi, foizda	-	26,4	[13]
- mustaqil band bo'lishdan olingan daromadlar ulushi, foizda	-	34,0	[13]
Transfertilardan olingan daromadlar ulushi, foizda	26,0	29,6	[12]

¹ Manba: jadval ko'rsatilgan rasmiy statistik nashrlar va hisobotlar asosida tuzildi.

Ko'rsatkich	2024-yil	2025-yil	Manba
Xorijdan pul o'tkazmalarining ulushi, foizda	-	21,0	[13]
Eng yuqori va eng quyi uchlik hududlar nisbati, marta	2,40	2,38	[12]
Kvintil guruhlar nisbati, marta	6,3	5,7	[14]
Jini koeffitsiyenti	0,35	0,33	[14]
Kambag'allik darajasi, foizda	8,9	5,8	[14]

Izoh: «-» belgisi ko'rsatkichning tegishli davr uchun rasmiy nashrda alohida keltirilmaganini bildiradi.

Jadval ma'lumotlari tarkibiy siljishning yo'nalishini aniq belgilaydi: mehnat faoliyatidan olingan daromadlar ulushi 2,4 foiz punktga qisqargani holda, transfertlar ulushi 3,6 foiz punktga kengaydi [12]. Ikki manba o'rtasidagi qayta taqsimlanish tarkibiy siljish o'lchovining taxminan 3,6 foiz punkt darajasidagi qiymatiga mos keladi, ya'ni tarkib sezilarli, biroq evolyutsion tarzda yangilanmoqda. Transfert oqimining tez o'sishi pensiya va nafaqa to'lovlari hajmining kengayishi hamda xorijdan kelib tushayotgan shaxsiy pul o'tkazmalarining barqaror oqimi bilan izohlanadi [13].



1-rasm. Aholi daromadlarini statistik baholashning uch bosqichli tahlil konturi¹.

Hududiy kesimdagi baholash tafovutlarning qisqarish yo'nalishini ko'rsatdi: eng yuqori va eng quyi daromadli uchlik hududlar o'rtasidagi nisbat 2,40 dan 2,38 martagacha pasaydi [12]. Transfert daromadlarining hududiy taqsimlanishi esa sezilarli farqlanadi - Farg'ona viloyatida ushbu manbaning ulushi 42,2 foizni, Xorazm viloyatida 39,1 foizni tashkil etgan holda, Navoiy viloyatida 13,6 foiz darajasida qayd etildi [13]. Sanoat salohiyati yuqori hududlarda mehnat daromadlarining ustuvorligi saqlanib qolmoqda: Toshkent viloyatida mehnat faoliyatidan olingan daromadlar

¹ Manba: muallif ishlanmasi.

ulushi 74,9 foizga yetdi [15]. Bunday farqlanish daromad shakllanishi mexanizmining hududiy iqtisodiy tuzilmaga bevosita bog'liqligini tasdiqlaydi.

Taqsimot tekisligi bo'yicha natijalar ijobiy dinamikani qayd etdi. Kvintil guruhlar o'rtasidagi tafovut 6,3 martadan 5,7 martaga, Jini koeffitsiyenti esa 0,35 dan 0,33 ga qisqardi; kambag'allik darajasi 3,1 foiz punktga pasayib, 5,8 foizni tashkil etdi [14]. Quyi daromad guruhi tushumlarining yuqori guruhga nisbatan tezroq o'sishi tengsizlik ko'rsatkichlari pasayishining asosiy manbai bo'ldi. Uch bosqichli kontur natijalari o'zaro izchil: tarkibiy siljish transfert kanalining kengayishini, dinamik baholash real o'sishning tezlashuvini, hududiy o'lchov esa tabaqalanishning torayishini ko'rsatib, ijtimoiy yo'naltirilgan taqsimot siyosatining samaradorligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan baholash aholi daromadlarini o'rganishda tarkibiy, dinamik va hududiy o'lchamlarni bitta uslubiy konturda birlashtirish tahliliy natijaning izchilligini oshirishini ko'rsatdi. Daromad tarkibida transfert kanalining salmog'i kengayib borishi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimining kuchayganini, mehnat daromadlarining nominal hajmi sezilarli o'sishda davom etayotgani esa bandlik sohasidagi ijobiy jarayonlarni aks ettiradi.

Hududiy differensiatsiya ko'rsatkichlarining qisqarishi va taqsimot tengsizligining pasayishi milliy iqtisodiyotda farovonlikning kengroq aholi qatlamlariga yoyilayotganini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar asosida quyidagi takliflar shakllantirildi.

1. Aholi daromadlari statistikasida manbalar bo'yicha dekompozitsiya hisob-kitoblarini muntazam nashr etish, har bir manbaning umumiy tengsizlikka qo'shgan hissasini alohida ko'rsatkich sifatida shakllantirish maqsadga muvofiq.

2. Hududiy kesimdagi baholashda to'liq dekompozitsiyalanuvchi tengsizlik o'lchovlarini joriy etish hududlararo va hudud ichidagi tafovutlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

3. Uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvi natijalarini milliy hisoblar tizimi ko'rsatkichlari bilan muntazam solishtirish o'lchov sifatini oshiradi va ma'lumotlar bazasining xalqaro qiyosiylikini mustahkamlaydi.

4. Transfert daromadlari ulushi yuqori bo'lgan hududlarda mahalliy bandlik va tadbirkorlikni rag'batlantirish dasturlarini statistik monitoring bilan qo'llab-quvvatlash daromad tarkibining barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Keyingi tadqiqot yo'nalishi sifatida hududiy daromad qatorlari asosida panel ma'lumotlar modellarini qurish va tarkibiy siljishlarning uzoq muddatli trayektoriyasini baholash istiqbolli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. United Nations Economic Commission for Europe. Canberra Group Handbook on Household Income Statistics. Second Edition. - Geneva: United Nations, 2011. - 194 p. URL: <https://unece.org/statistics/publications/canberra-group-handbook-household-income-statistics-2nd-edition>

2. European Commission, IMF, OECD, United Nations, World Bank. System of National Accounts 2008. - New York, 2009. - 662 p. URL: <https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/docs/SNA2008.pdf>
3. OECD. OECD Framework for Statistics on the Distribution of Household Income, Consumption and Wealth. - Paris: OECD Publishing, 2013. - 264 p. DOI: <https://doi.org/10.1787/9789264194830-en>
4. Kuznets S. Economic Growth and Income Inequality // The American Economic Review. - 1955. - Vol. 45, No. 1. - P. 1-28. URL: <https://www.jstor.org/stable/1811581>
5. Atkinson A.B. On the Measurement of Inequality // Journal of Economic Theory. - 1970. - Vol. 2, No. 3. - P. 244-263. DOI: [https://doi.org/10.1016/0022-0531\(70\)90039-6](https://doi.org/10.1016/0022-0531(70)90039-6)
6. Shorrocks A.F. Inequality Decomposition by Factor Components // Econometrica. - 1982. - Vol. 50, No. 1. - P. 193-211. DOI: <https://doi.org/10.2307/1912537>
7. Bourguignon F. Decomposable Income Inequality Measures // Econometrica. - 1979. - Vol. 47, No. 4. - P. 901-920. DOI: <https://doi.org/10.2307/1914138>
8. Deaton A. The Analysis of Household Surveys: A Microeconomic Approach to Development Policy. - Washington: World Bank, 1997. - 479 p. DOI: <https://doi.org/10.1596/0-8018-5254-4>
9. Piketty T., Saez E. Income Inequality in the United States, 1913-1998 // The Quarterly Journal of Economics. - 2003. - Vol. 118, No. 1. - P. 1-41. DOI: <https://doi.org/10.1162/00335530360535135>
10. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Aholi turmush darajasi: rasmiy statistika. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2>
11. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari (yanvar-dekabr). URL: https://stat.uz/img/yanvar-dekabr-uzb_p97071.pdf
12. O'zbekiston aholisining real daromadlari 2024-yilda 9,2% oshdi // Gazeta.uz, 2024-yil
13. 2024-yilda aholi daromadlarining oshishi tezlashdi. Asosiy manbalar // Kun.uz
14. O'zbekistonda boy va kambag'al aholi daromadlari o'rtasidagi tafovut qisqardi // Spot.uz, 2024-yil
15. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Toshkent viloyati aholi umumiy daromadlari tarkibi. URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/11853-toshkent-viloyati-aholi-umumiy-daromadlari-tarkibi>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-YIL, 16- OKTABR, MAXSUS SON, IV-V-SHO'BALAR

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**